



THE HARMONY OF NATIONAL TRADITIONS AND MODERN VALUES IN SHAPING LEGAL LITERACY

Burgutali Kenjayev

Teacher at Namangan State Pedagogical Institute

Email: burgutalikenjayev30@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal literacy, legal culture, national tradition, modern value, mahalla, human rights, rule of law, gender equality, inclusivity, mediation, digital ethics, civil society.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations of harmonizing national traditions with modern values in the process of developing legal literacy within the context of New Uzbekistan. The study interprets legal literacy not merely as a set of normative knowledge, but as a complex competence manifested in an individual's value system, beliefs, and practical behavior.

It demonstrates how the core elements of national traditions – mahalla (neighborhood community), oqsoqol (elder leadership), andisha (consideration), respect, and compromise – have created spiritual and legal mechanisms for social control and balanced relationships.

HUQUQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY AN'ANALAR VA ZAMONAVIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Burgutali Kenjayev

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: burgutalikenjayev30@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, milliy an'ana, zamonaviy qadriyat, mahalla, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, gender tengligi, inklyuzivlik, mediatsiya, raqamli etika, fuqarolik jamiyati.

Annatsiya: Maqola Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy savodxonlikni shakllantirish jarayonida milliy an'analari va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qiladi.

Tadqiqotda huquqiy savodxonlik

shunchaki normativ bilimlar majmui emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimi, e'tiqodi va amaliy xulq-atvorida namoyon bo'ladigan kompleks kompetensiya sifatida talqin etiladi. Milliy an'analarning asosiy elementlari – mahalla, oqsoqollik, andisha, hurmat va murosa – ijtimoiy nazorat va muvozanatli munosabatlarning ma'naviy-huquqiy mexanizmlarini yaratgani ko'rsatiladi.

ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ

Бургутали Кенжаев

Преподаватель

Наманганского государственного педагогического института

Email: burgutalikenjayev30@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовая грамотность, правовая культура, национальная традиция, современная ценность, махалля, права человека, верховенство закона, гендерное равенство, инклюзивность, медиация, цифровая этика, гражданское общество.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические основы гармоничного сочетания национальных традиций и современных ценностей в процессе формирования правовой грамотности в условиях Нового Узбекистана.

В исследовании правовая грамотность рассматривается не просто как совокупность нормативных знаний, а как комплексная компетенция, проявляющаяся в системе ценностей, убеждениях и практическом поведении личности. Показано, что основные элементы национальных традиций – махалля, институт аксакалов, андиша (этикет), уважение и компромисс – создали духовно-правовые механизмы социального контроля и сбалансированных отношений.

Kirish. Yangi O'zbekiston davrida jamiyatni isloh qilish, fuqarolik ongini oshirish va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishning eng muhim sharti bu — aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirishdir. Huquqiy savodxonlik deganda faqat qonunlarni yod olish emas, balki ularni to'g'ri tushunish, hayotda qo'llash va o'z huquq hamda majburiyatlariga ongli munosabatda bo'lish tushuniladi. Bu jarayonning falsafiy ildizida insonning o'z huquq va erkinliklarini anglash, adolatga ishonch, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyat hissi yotadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa milliy an'analar bilan zamonaviy demokratik qadriyatlar

uyg'unlashgan holda ro'y beradi. Chunki har bir xalqning huquqiy tafakkuri uning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy hayot tarziga bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Huquqiy savodxonlik falsafiy jihatdan shaxsning borliqni adolat me'yorlari orqali idrok etishi, erkinlikni mas'uliyat bilan uyg'unlashtira olishi va ijtimoiy munosabatlarda me'yoriy-aksialogik muvozanatni saqlay bilishi sifatida talqin etiladi. Unda uch qatlam ajralib turadi: "birinchisi – gnoseologik qatlam bo'lib, qonunlar, institutlar, protseduralar haqidagi bilimlar majmuasini anglatadi;

ikkinchisi – aksiologik qatlam bo'lib, adolat, halollik, hurmat, inson qadr-qimmati kabi yuksak ideallarga ishonchni ifodalaydi; uchinchisi – pragmatik qatlam bo'lib, huquqiy bilim va qadriyatlarni vaziyatga mos to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi" [1]. Demak, huquqiy savodxonlik "bilaman-ishonaman-amal qilaman" uchligi asosida shakllanadi va aynan shu uchlik milliy an'analar bilan zamonaviy qadriyatlarning sintezi orqali mustahkamlanadi.

O'zbekiston xalqi tarixiy taraqqiyot davomida mahalla, qo'ni-qo'shnichilik, qarindoshlik, oqsoqollik va jamoatchilik asosidagi murosa, muvozanat va xayrixohlik kabi ijtimoiy-axloqiy institutlarni shakllantirgan. Bu institutlar bevosita yozma kodeksga kiritilmagan bo'lsa-da, ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi "ma'naviy-huquqiy normalar" sifatida faoliyat ko'rsatgan. "Ota so'zi", "andisha", "hurmat", "or-nomus" kabi tushunchalar jamiyat a'zolarini o'zini o'zi nazorat qilishga, boshqalarning huquq va manfaatlarini inobatga olishga, nizolarni murosa yo'li bilan hal etishga yo'naltirgan. Mahalla yig'inlari, oqsoqollar maslahati, bag'rikenglik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirgan, bu esa huquqiy xulqning norasmiy lekin kuchli mexanizmlarini yaratgan. Milliy adabiy va ma'rifiy merosda ham qonuniylik va adolat ulug'lanadi. Ma'rifatchilar, jumladan, Abdulla Avloniy asarlarida jamiyat barqarorligining garovi sifatida qonuniylik va axloqiylik bir-biri bilan uzviy bog'langan holda talqin qilinadi. Bu yondashuv bugungi huquqiy savodxonlik siyosatida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda: qonun – tashqi norma, axloq – ichki e'tiqod. Ular uyg'unlashgandagina huquqiy xatti-harakat barqaror bo'ladi.

Globallashuv, raqamli transformatsiya va ochiq axborot makoni sharoitida huquqiy tafakkur demokratik tamoyillar, inson huquqlari, gender tengligi, inklyuzivlik, shaffoflik, hisobdorlik, ma'lumotlarni himoya qilish, ekologik mas'uliyat kabi zamonaviy qadriyatlar bilan boyimoqda. Yangi O'zbekiston siyosiy-huquqiy islohotlarida "inson qadri" g'oyasi markazga qo'yilayotgani ham ana shu universal qadriyatlar bilan milliy taraqqiyot strategiyasining uyg'unlashayotganidan dalolat beradi. Zamonaviy qadriyatlar huquqiy normalarni faqat jazolash vositasi emas, balki xizmat ko'rsatish, fuqaroni qo'llab-quvvatlash va uning o'zini ro'yobga chiqarishiga imkoniyat yaratish mexanizmi sifatida talqin etadi.

Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligi ikki asosiy mexanizm orqali yuz beradi. Birinchisi – germevntik qayta talqin mexanizmi bo'lib, u an'anaviy tushunchalarni bugungi ijtimoiy kontekstga mos ma'noda yangilaydi. Masalan, "andisha" zamonaviy talqinda "huquqiy sezgirlik" – boshqalarning huquqlarini his etish, ijtimoiy xavfsizlik va qadr-qimmatni e'tirof etish sifatida tushuniladi. Ikkinchi mexanizm – "institutsonal integratsiya bo'lib, unda mahalla, maktab, OAV, NNT va davlat muassasalari hamkorlikda milliy qadriyatlarni zamonaviy huquqiy dasturlar, o'quv rejalari, xizmat standartlari va medialar orqali mazmunan uyg'unlashtiradi" [2]. Natijada normativ hujjatlar milliy axloqiy "ruhaniyat" bilan to'ynadi, an'analar esa huquqiy protsedura va indikatorlarga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Huquqiy savodxonlik avvalo ta'limda shakllanadi. Maktabgacha bosqichdan boshlab "o'yin orqali huquqiy vaziyatlar" metodikasi orqali bolalarda navbat kutish, mulkka ehtiyotkorlik, tengdoshlari huquqini hurmat qilish kabi oddiy, lekin fundamental me'yorlar tarbiyalanishi lozim. Umumta'lim maktablarida "Konstitutsiya darsi", "Huquqshunoslik asoslari" va "Yoshlar va qonun" bloklarini mahalla, sud-huquq organlari, advokatlar palatasi va nodavlat tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikda olib borish mazmunni jonlantiradi. Bu jarayonda milliy ertaklar, maqollar, tarixiy qahramonlar hayotidan misollar bilan zamonaviy huquqiy case'lar birlashtiriladi: masalan, kiberbulling holatini tahlil qilishda "yaxshilikka yaxshilik – har kishining ishi" kabi maqollar etik ko'prik bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi zamonaviy normalar o'rgatiladi" [3].

Oliy ta'lim va o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida modul-kredit asosida "Huquqiy madaniyat pedagogikasi", "Raqamli huquqlar va axborot xavfsizligi", "Media savodxonlik va huquqiy kommunikatsiya", "Mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik" kabi modullarni joriy etish lozim. Har bir modul yakunida amaliy portfel vazifasi – masalan, mahalla bilan hamkorlikda mini-loyiha, sud majlisini kuzatish va huquqiy tahlil, onlayn platformalarda foydalanuvchi kelishuvini tahlil qilish bajariladi.

Mahalla – milliy ijtimoiy boshqaruvning muhim bo'g'ini. Huquqiy savodxonlikni oshirishda mahalla markazlari, yoshlar va ayollar daftari tizimi, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qilgan holda "Huquqiy muloqot kunlari", "Ochiq eshiklar", "Mahallada mediator" kabi tashabbuslar tatbiq etilishi samarali natija beradi. NNTlar, fuqarolik tashabbus guruhlari va masjid-jamoat bilan hamkorlikda oilaviy nizolar, meros, nikoh va mehnat munosabatlariga doir profilaktik tushuntirish ishlari olib borilishi mumkin. Bunda milliy muloqot madaniyati — xolis guvohlar, oqsoqollar maslahati, mushtarak hal qiluvchilik ruhidan foydalaniladi, biroq barcha yechimlar amaldagi qonunchilik doirasida mustahkamlanadi.

Raqamli muhitda huquqiy savodxonlik deganda faqat elektron xizmatlardan foydalanish emas, balki shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, mualliflik huquqiga hurmat, onlayn shartnomalar va foydalanuvchi kelishuvlarini anglash, kiberxavfsizlik qoidalariga amal qilish ham nazarda tutiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda diniy, milliy, jinsiy kamsitish elementlari bo'lgan nafrat so'zlariga nisbatan huquqiy mas'uliyatni tushuntirish, "deepfake" va soxta axborotning oqibatlarini ko'rsatish, raqamli izlar (digital footprint) ning huquqiy-axloqiy oqibatlarini muhokama qilish zarur. Milliy qadriyatlarda odob-axloq, hayo, hurmat tamoyillari raqamli etikani mustahkamlaydi; zamonaviy norma esa bu tamoyillarni platforma qoidalari, konstitutsiyaviy erkinliklar va cheklovlar bilan muvofiqlashtiradi.

Zamonaviy huquqiy qadriyatlardan biri – gender tengligi va inklyuzivlik. Milliy an'analar doirasida oilani muqaddas deb bilish qadriyati saqlanadi, ammo bu qadriyat ayol va erkakning teng huquqliligiga zid emas, aksincha adolatli rol taqsimoti, zo'ravonliksiz munosabat, ta'lim va mehnatga teng kirish imkonlarini talab qiladi. Inklyuziv ta'lim va infratuzilma me'yorlari esa nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Mahalla va maktab darajasida ushbu masalalarga doir tushuntirishlar milliy axloqiy tasavvurlar – mehr-oqibat, muruvvat, qo'shnichilik yordami – bilan uyg'un holda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Ish joyida huquqiy madaniyatni oshirish ham milliy va zamonaviy qadriyatlar sintezi orqali kechadi. Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlarda mehnat shartnomasi, mehnat muhofazasi, kasb etikasi, diskriminatsiyaga yo'l qo'yimaslik, sha'ni va qadr-qimmatni hurmat qilish kabi masalalar bo'yicha ichki treninglar, kodekslar va murojaat kanallarini joriy etish lozim. "Mahalliy mentalitetga xos hurmat va hamjihatlik qadriyatlari jamoa muhitini iliq qiladi, zamonaviy compliance-me'yorlar esa bu muhitni aniq protsedura va kafolatlariga bog'laydi" [4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Huquqiy savodxonlikni oshirish siyosati samaradorligini baholash uchun aniq ko'rsatkichlar zarur. Masalan, o'quvchilarda huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmasi, oilalarda huquqiy masalalar bo'yicha xabardorlik darajasi, mahalliy nizolarning sudgacha hal etilishi ulushi, onlayn platformalarda foydalanuvchi shikoyatlarining tez va shaffof ko'rib chiqilishi, mediatsiya institutiga murojaatlar soni, yoshlarning huquqiy ko'ngilli aksiyalarida ishtiroki, ish joylarida diskriminatsiya bo'yicha profilaktika dasturlari qamrovi kabi indikatorlar qo'yilishi mumkin. Shu bilan birga, so'rovnomalar, kichik guruhlar, kuzatuv va kontent tahlili metodlari orqali sifat ko'rsatkichlari ham o'lchanadi. Milliy qadriyatlarga mos ravishda odob, murosa, hurmat ko'rsatkichlari ham so'rov hamda kuzatuvlarda inobatga olinadi.

Bir mahallada internetda tarqalgan soxta xabarlar tufayli qo'shnilar o'rtasida ziddiyat kuchaydi. Mahalla raisi, profilaktika inspektori va maktab psixologi ishtirokida "Huquqiy

muloqot kechasi” o‘tkazilib, shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilishning oqibatlari, tuhmat va haqoratning huquqiy javobgarligi, mediator yordamida murosa mexanizmlari tushuntiriladi. Uchrashuvdan so‘ng tomonlar kechirim so‘radi va postlar o‘chirildi. Bu yerda milliy murosa qadriyatlari zamonaviy raqamli huquqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashadi. Bir korxonada ayol xodimga nisbatan kamsitish alomatlari kuzatiladi. Jamoa yig‘ilishida mehnat qonunchiligi, gender tengligi, ichki etika kodeksi tushuntirildi, anonim murojaat qutisi joriy qilinadi. “Milliy qadriyatlardagi adolatli munosabat g‘oyasi zamonaviy siyosat bilan uyg‘unlashadi” [5]. Bir maktabda o‘quvchilar o‘rtasida kiberbulling holatlari ko‘paydi. Ota-onalar qo‘mitasi, axborot texnologiyalari o‘qituvchisi va mahalla faollari bilan birga “Raqamli odob-axloq va huquqlar” bo‘yicha ochiq dars o‘tkaziladi. O‘quvchilar nafaqat qoidalardan xabardor bo‘ldi, balki milliy axloqda kimgadir malomat qilish, sha’nini toptash naqadar qoralanganini ham muhokama qildi. Shundan so‘ng maktab ichida “Hurmatli onlayn muloqot” tashabbusi yo‘lga qo‘yiladi.

Uyg‘unlik jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuz berishi mumkin. Ba’zan an’ana nomidan xatoliklar oqlanadi yoki zamonaviylik niqobi ostida milliy o‘zlikdan begonalashuv ro‘y beradi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun ikki yo‘l muhim: birinchidan, tanqidiy-germenevtik yondashuv — an’anani “o‘zagini asrab, shaklini yangilash”; ikkinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy yondashuv — barcha ijtimoiy amaliyotlar Yangi O‘zbekistonning qonuniy me’yorlari va xalqaro majburiyatlariga mos kelishini ta’minlash. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda “qonuniylik + ma’naviyat” formulasi targ‘ibotini kuchaytirish, diniy-ma’rifiy sohaga doir masalalarda huquqshunoslar, sotsiologlar, pedagoglar bilan hamkor kontentlar yaratish ham muhim.

Huquqiy savodxonlikni milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligida oshirish uch pog‘onada olib borilishi maqsadga muvofiq: makro, mezo va mikro darajalar. Makro darajada davlat siyosati, milliy o‘quv dasturlari, medialar va raqamli platformalar tizimli uyg‘unlikda ishlaydi. Mezo darajada viloyat, tuman, shahar darajasida mahalliy dasturlar, hamkorlik kengashlari, sud-huquq tizimi bilan jamoatchilik muloqoti yo‘lga qo‘yiladi. Mikro darajada esa oilalar, sinf jamoalari, mehnat jamoalari, onlayn guruhlar kesimida “kichik amaliyotlar” — trening, mediatsiya, maslahat, klub va laboratoriyalar yo‘lga qo‘yiladi. Har bir pog‘onada natija indikatorlari va javobgarlik mexanizmlari oldindan belgilanadi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish uchun “kompetensiyaga asoslangan” loyihalashtirish muhim: faktologik bilimlar (qonunlar va institutlar), analitik ko‘nikmalar (holatni tahlil qilish, isbot keltirish), kommunikativ ko‘nikmalar (madaniyatli bahs, murosa), fuqarolik tashabbusi (ko‘ngillilik, jamoaga xizmat), raqamli gigiyena (ma’lumotlarni himoya qilish, onlayn etikaga rioya) kabi yo‘nalishlar tizimli birlashtiriladi. Amaliy mashg‘ulotlarda “rol o‘ynash”,

“simulyatsiya”, “sud jarayoni modeli”, “mediatsiya mashqi”, “media kontent tahlili” kabi usullar qo‘llansa, nazariya amaliy odatga aylanadi.

Uyg‘unlikning barqaror mexanizmi – ko‘p tomonlama hamkorlik. Mahalla tarbiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni, maktab bilim va ko‘nikma berishni, OAV ommaviy madaniy namunalarning huquqiy talqinini, NNT esa fuqarolik tashabbuslari va himoyasini ta‘minlaydi. Bunday “kvartet” bir maqsad — huquqiy e‘tiqodli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Masalan, televideniya mahalla ishtirokidagi huquqiy hikoyalar serseriali, maktabda ochiq darslar, NNTda bepul maslahat kunlari, mahallada mediatsiya klublari uyg‘un ekotizimni vujudga keltiradi.

Huquqiy savodxonlik faqat hujjatlar tilida emas, oddiy, ravon, xalqona tilda ham izohlanishi shart. Murakkab huquqiy terminlar sodda misollar bilan yoritilsa, fuqaro o‘z hayotidagi real vaziyatlar bilan bog‘lay oladi. Milliy iboralar, maqollar, hikmatlar huquqiy axborotning esda qolishini osonlashtiradi; zamonaviy grafikalar, infografika, qisqa videoroliklar esa raqamli auditoriyaga moslashadi. Shu tariqa “ma‘no” va “uslub” uyg‘unlashib, huquqiy xabar ta‘sirchan bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Huquqiy savodxonlikni shakllantirishda milliy an‘analar va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoriy sharti hisoblanadi. Milliy qadriyatlar — huquqiy tafakkurning ruhiy-axloqiy manbai, zamonaviy qadriyatlar – uning institutsional va protsessual kafolatidir. An‘ananing o‘zagini asrab, mazmunini yangilash; zamonaviy normalarni milliy zamin bilan uyg‘unlashtirish; ta‘lim, mahalla, OAV va NNT hamkorligini kuchaytirish; raqamli etikani huquqiy me‘yorlar bilan bog‘lash — bularning barchasi huquqiy e‘tiqodli, ijtimoiy mas‘uliyatli, adolatparvar shaxsni tarbiyalaydi. Shunday shaxslar ko‘paygan sari, jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat, o‘zaro hurmat va ishonch mustahkamlanadi. Huquqiy savodxonlik — erkinlikni mas‘uliyat bilan uyg‘unlashtirish san‘ati; milliy meros va zamonaviy qadriyatlarning uyg‘unligi esa bu san‘atni hayotga chuqur singdirishning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saydullayev Sh. A., Ahmedshayeva M., Najimov M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 248 b.
2. Satvoldiyev F.A. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari – Namangan, 2024 – 275 b.
3. Mamaziyayev X. Jamiyatda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish: muammo va yechimlar. Наука и инновация, 2025. – С. 39-43.

4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4396419>
5. Xoldorova Z.F. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va uning dolzarbligi. Interdiscipline innovation and scientific research conference, 2024. – P. 30-34.